

ISSN : 3030-3974

MAKON VA ZAMON

Пространство и время
Space and time

№3
2025

MAKON VA ZAMON

**ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-sotsiologik,
ma'naviy-ma'rifiy jurnal**

2025/3 (№5)

M u a s s i l a r: “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini
mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti
va O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati

Tahririyat: *t.f.d., professor, akademik O.Salimov, f.f.d., professor*
M.Abdullayeva, s.f.d., professor A.Muminov, f.f.d., professor O‘.Abilov, p.f.d., professor
R.Choriyev, p.f.d., professor Z.Ismoilova, f.f.d., professor J.Ramatov,
i.f.d., dotsent X.Pirmatov, s.f.d. – A.Ravshanov.

ISSN 3030-3974

Bosh muharrir – tahririyat rahbari:

Qiyom Nazarov – f.f.d., professor

Nashrga tayyorlovchilar:

M.Tursunova, M.Turdiyeva, Q.Kdirbayev

Tahririyat manzili: Qori Niyoziy ko‘chasi, 39,

Toshkent shahri, 100000,

Bichimi 60x84 Ofset qog‘ozi. “Times” garniturası.

Hajmi 20 b.t. Nashriyot hisob tabog‘i 30 b.t. Adadi 100 nusxa

MUNDARIJA:

Бош муҳаррир минбари	Шарқ ва Ғарб фалсафасининг узвий алоқадорлиги.....	4
N.Kuvvatov	Umuminsoniy demokratik prinsiplarning qaror topishi – yangi O‘zbekistonni barpo etish omili.....	8
X.Nishonov	Oliy ta’lim muassasalarida korporativ madaniyatni shakllantirishda axloqiy tarbiyaning o‘rni.....	12
B.Axmedov	Maktabgacha yoshdagi bolalarda vatanga muhabbat tuyg‘usining o‘ziga xos xususiyatlari.....	15
И.Насриев	Мерос ҳақидаги шартнома институтининг атрибутлари ва устивор тамойиллари.....	20
Д.Куанишова	Марказий Осиё ижтимоий-фалсафий тафаккурида аёллар ҳақидаги қарашлар.....	25
S.Xoldarov	Beruniyning ijtimoiy-falsafiy va antropologik qarashlari.....	29
М.Парпиев	Европа уйғониш даврида фалсафий ва илмий билимлар динамикаси.....	32
N.Zaynobidinova	Jahon mamlakatlari tajribasida diniy va dunyoviy qarashlarning uyg‘unligi.....	36
У.Мавлянов	Али Сафийнинг билиш тўғрисидаги қарашлари.....	40
М.Умарова	Бухоро Амир Шоҳмурод ҳукмронлиги даврида маданий ва маънавий ҳаёт.....	45
I.Boymirzayev	Nizak Tarxon I va Nizak Tarxon II ning hayoti va qo‘zg‘olonlari.....	49
D.Xaydarova	Jadidchilikning ijtimoiy-ma’rifiy yo‘nalishlarining proksiologik xususiyatlari.....	53
Д.Мамажонов	XX асрдаги ижтимоий-сиёсий ва маданий жараёнларнинг театр ва кино равнақиға таъсири.....	57
Sh.Elmuratova	Sharof Rashidov xotirasini abadiylashtirish ishlarida muzeylarining tutgan o‘rni.....	60
O.Abduvaliyev	Ijtimoiy muammolarni hal etishda yoshlarning o‘rni.....	63
Г.Нишонбоева	Маданий тарбия – ёшлар камолотининг пойдевори.....	67
X.Xolmirzaev	Sun’iy intellekt va ijtimoiy tenglik dinamikasi.....	70
D.O‘rinboev	Janubiy Koreyaning strategema nazariyalaridan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari.....	74
B.Toshboyev	Milliy xarakter va axloq uyg‘un rivojlanishida zamon va makon dialektikasi.....	77
U.Muxtarov D.Ergashev	Ishsizlikni kamaytirishda mehnat bozorining asosiy xususiyatlari....	81
O.Ortiqov	Ijtimoiy fikr taraqqiyotida falsafiy merosning o‘rni va ahamiyati.....	85
О.Межевникова	Когнитивные изменения и адаптация сознания в цифровом мире.....	88
A.Sodiqov	Ziyoli mafkurasi – sog‘lom jamiyat asosi.....	91
Q.Yuniso	Globalashuvning mohiyati va shakllanish tarixi.....	95

SUN'IY INTELLEKT VA IJTIMOIIY TENGLIK DINAMIKASI

Xurshid Xolmirzaev

Andijon davlat universiteti dotsenti

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun'iy intellektning ijtimoiy tenglik dinamikasiga ta'siri tahlil qilinadi. Zamonaviy texnologiyalarning jamiyatdagi adolatli taqsimoti va imkoniyatlar yaratilishiga ta'siri muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, ijtimoiy tenglik, texnologik taraqqiyot, mehnat bozori, inson huquqlari, ta'lim texnologiyalari, tibbiyotda sun'iy intellekt.

Аннотация. В данной статье анализируется влияние искусственного интеллекта на динамику социального равенства. Обсуждается воздействие современных технологий на справедливое распределение в обществе и создание возможностей.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, социальное равенство, технологический прогресс, рынок труда, права человека, образовательные технологии, искусственный интеллект в медицине.

Annotation. This article analyzes the impact of artificial intelligence on the dynamics of social equality. It discusses the influence of modern technologies on fair distribution in society and the creation of opportunities.

Key words: Artificial intelligence, social equality, technological progress, labor market, human rights, educational technologies, artificial intelligence in medicine.

Sun'iy intellekt zamonaviy jamiyatning turli sohalarida inson faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatib, ijtimoiy tenglik tushunchasini qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Texnologiyaning ushbu turi ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi tenglikni ta'minlash yoki aksincha, uni buzishga qodir. Bu jarayon ijtimoiy-falsafiy va etik nuqtayi nazardan tahlilni talab etadi.

Avvalo, sun'iy intellektning ijtimoiy tenglikka ta'siri uni qo'llashdagi shaffoflik va adolat mezonlari bilan bevosita bog'liq. Algoritmalar ma'lumotlarga asoslanib ishlagani sababli, ulardagi har qanday noto'g'rilik yoki bir tomonlama ma'lumot tengsizlikning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Masalan, «Amazon»ning ishga qabul qilish uchun ishlatilgan algoritmi ma'lum ma'lumotlar ortida gender diskriminatsiyasiga sabab bo'lganini misol qilish mumkin. Bu kabi holatlar sun'iy intellektning jamiyatdagi ayrim guruhlariga nisbatan adolatsizlik keltirib chiqarish xavfini ko'rsatadi. Sun'iy intellekt ijtimoiy tenglikni ta'minlashda katta imkoniyatlarni beradi. Texnologiya faoliyati kam ta'minlangan joylarda ta'lim va tibbiyotni kengroq tarqatishga yordam berib, ijtimoiy imkoniyatlar tengligini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Masalan, masofaviy ta'lim platformalari orqali barcha jamiyat a'zolari ta'lim olish imkoniga ega bo'lmoqda. Bu jarayonda sun'iy intellekt har bir o'quvchiga individual yondashuv imkoniyatini beradi, bu esa ta'lim sifatini yanada yaxshilaydi.

Sun'iy intellekt etik prinsiplarni himoya qilishda ham muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda sun'iy intellektning shaffofligi, mas'uliyatliligi va bir tomonlama fikrlarga yo'l qo'ymaslik kabi tamoyillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Jahon banklari va BMT kabi xalqaro tashkilotlar sun'iy intellektidan foydalanishda etik kodekslarni joriy qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqmoqda.

Biroq, tengsizlikni bartaraf etish uchun texnologiyadan foydalanish jarayonida uni boshqarishdagi yuqori darajadagi malaka va ma'lumotlar talab etiladi. Bu tengsizlikni kamaytirish bilan birga, yangi ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarish xavfini oldini olish uchun juda muhimdir.

Sun'iy intellekt texnologiyalari jamiyatdagi imkoniyatlar tengligini ta'minlash va resurslarni adolatli taqsimlashda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar kam ta'minlangan aholi qatlamlariga yordam berish, diskriminatsiyani kamaytirish hamda ijtimoiy adolatni ta'minlash maqsadida turli sohalarda qo'llanilmoqda. Bu jarayonda inson huquqlari va axloqiy tamoyillar asosiy mezon sifatida e'tiborga olinmoqda.

Birinchi muhim vosita – adolatli va shaffof algoritmlarni ishlab chiqish. Sun'iy intellekt algoritmlari ma'lumotlar bazasiga asoslangan holda ishlaydi, shu sababli ulardagi ma'lumotlar noxolis bo'lsa, qarorlar ham bir tomonlama chiqishi mumkin. Bunday holatlarning oldini olish maqsadida IBM kompaniyasi tomonidan «AI Fairness 360 Toolkit» platformasi ishlab chiqilgan bo'lib, u algoritmlardagi adolatsizlikni aniqlash va kamaytirish imkonini beradi. Jahon banki ham ushbu dasturni ijtimoiy sohalarda tenglikni ta'minlashda qo'llashni taklif etgan.

Ikkinchi vosita – inklyuziv platformalar yaratish. Sun'iy intellekt texnologiyalari jamiyatda barcha qatlamlar uchun imkoniyat yaratishga xizmat qiladi. Masalan, IBM tomonidan ishlab chiqilgan «Watson Health» platformasi tibbiy xizmatlarni teng taqdim etishga yordam beradi. Bu platformadan foydalanish orqali kam ta'minlangan aholi, chekka hududlarda yashovchilar va tibbiy yordamga muhtoj shaxslar sifatli tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi[1].

Uchinchi vosita – resurslarni adolatli taqsimlashda sun'iy intellekt tavsiya tizimlaridan foydalanish. Bugungi kunda ta'lim sohasida Coursera va Khan Academy kabi platformalar sun'iy intellekt yordamida foydalanuvchilarning bilim darajasini tahlil qilib, ularga eng muvofiq kurslarni tavsiya etadi. Bu esa ta'limga kirish imkoniyatini kengaytirishga va shaxsiylashtirilgan o'quv jarayonini tashkil etishga xizmat qiladi. Yevropa Ittifoqi tomonidan qabul qilingan «AI Ethics Guidelines» hujjatida ham sun'iy intellektidan ijtimoiy adolatni ta'minlash uchun foydalanish muhimligi ta'kidlangan.

To'rtinchi vosita – sun'iy intellekt faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik va axloqiy qoidalarni joriy qilish. Yevropa Ittifoqi «AI Ethics Guidelines» dasturini ishlab chiqib, sun'iy intellekt texnologiyalari inson huquqlariga zid ravishda ishlatilmasligi kerakligini belgilab bergan. Bu hujjatda algoritmlardan foydalanishda shaffoflik, javobgarlik va xolislik prinsiplariga rioya qilish talab etiladi. Shu kabi qonunchilik choralari sun'iy intellektidan ijtimoiy maqsadlarda to'g'ri foydalanishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Sun'iy intellekt ijtimoiy tenglikni ta'minlash va jamiyatdagi resurslarni adolatli taqsimlashda innovatsion vositalarni taklif etmoqda. Adolatli algoritmlar, inklyuziv platformalar, resurslarni teng taqsimlash mexanizmlari va huquqiy regulatsiya kabi vositalar bu jarayonda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Lekin, sun'iy intellekt faoliyatida inson huquqlari va axloqiy normalarga rioya qilish barcha tashabbuslarning markazida bo'lishi lozim.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining jamiyat rivojiga qo'shayotgan hissassi tobora ortib bormoqda. Biroq, uning joriy etilishida ijtimoiy adolatni ta'minlash dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Sun'iy intellekt inson huquqlari, tenglik, inklyuzivlik va shaffoflik kabi qoidalarga mos ravishda ishlab chiqilishi lozim. Bu esa algoritmlarning noxolislikka yo'l qo'ymasligini ta'minlash, imkoniyatlar tengligini kafolatlash va huquqiy me'yorlarni takomillashtirish orqali amalga oshiriladi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llashda jamiyatning barcha qatlamlari uchun teng imkoniyatlar yaratish lozim. Bu jarayonda kam ta'minlangan va imkoniyati cheklangan shaxslar ehtiyojlarini ham hisobga olish talab etiladi. Masalan, IBM kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan «Watson Health» platformasi tibbiy xizmatlarga teng huquqli kirish imkoniyatini ta'minlash uchun yo'naltirilgan. Ushbu platforma «foydalanuvchilarning shaxsiy ehtiyojlariga moslashgan tibbiy qarorlarni taklif qilish orqali tibbiyot sohasida tenglikni ta'minlaydi».

Sun'iy intellekt texnologiyalarining ijtimoiy adolat prinsiplariga rioya qilishini ta'minlash uchun huquqiy va etik normalarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Masalan, AQSHda qabul qilingan «Algorithmic Accountability Act» qonuniga muvofiq, kompaniyalar o'zlarining

algoritmalarini baholash va noxolislikka yo'l qo'ymaslik uchun monitoring o'tkazishi shart. Bu qonun algoritmalarining inson huquqlariga zid ravishda ishlashining oldini olishga qaratilgan.

Sun'iy intellekt rivojlanishida inson qadriyatini himoya qilish va jamiyat manfaatlarini ustuvor qo'yish zarur. Masalan, Google kompaniyasining «AI Principles» hujjatida sun'iy intellektni faqat inson hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan sohalarda ishlatish lozimligi qayd etilgan. Bu prinsiplar inson huquqlari va ijtimoiy adolatni ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Sun'iy intellektdan foydalanish jarayonida ijtimoiy adolatni ta'minlash uchun algoritmalarining xolisligi, inklyuziv platformalar, huquqiy me'yorlarni takomillashtirish va jamiyat manfaatlarini hisobga olish lozim. Texnologiyalardan barcha insonlar teng foydalana olishi, ularning huquqlari himoya qilinishi va etik tamoyillarga amal qilinishi sun'iy intellekt dan samarali foydalanishning asosiy shartlaridir.

Sun'iy intellekt texnologiyalari jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi tengsizlikni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu texnologiyalar orqali resurslarning taqsimlanishini yaxshilash, ta'lim, sog'liqni saqlash va ish o'rinlariga teng kirish imkoniyatlarini ta'minlash mumkin. Shuningdek, sun'iy intellekt diskriminatsiyaga qarshi kurash va marginal guruhlarini qo'llab-quvvatlash sohasida katta yutuqlarga erishish imkonini beradi.

Sun'iy intellekt tizimlari ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish orqali turli jamiyat qatlamlari o'rtasidagi resurslarning teng taqsimlanishini ta'minlashda qo'llaniladi. Masalan, sog'liqni saqlash sohasida ma'lumotlarga asoslangan tahlil orqali tibbiy xizmatlarni kam ta'minlangan hududlarga yo'naltirish mumkin. Vinuesa, R., Azizpour, H., Leite, I., Balaam, M., Dignum, V., Domisch, S., ... & Nerini, F. F. lar tomonidan amalga oshirilgan «Artificial Intelligence and the Challenge of Sustainable Development» deb nomlangan tadqiqotga ko'ra sun'iy intellekt orqali tabiiy resurslarning adolatli taqsimoti muhandislik va ijtimoiy sohalarda tenglikni oshiradi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari jamiyatning turli qatlamlariga, ayniqsa, imkoniyati cheklangan shaxslar va marginal guruhlariga katta yordam bermoqda. Ularning hayotini yengillashtirish, jamiyatdagi tenglikni ta'minlash va turli muammolarni kamaytirish uchun sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan turli innovatsion dasturlar va vositalar mavjud.

Ko'rish qobiliyati cheklangan shaxslarga moslashgan texnologiyalar orasida «Microsoft Seeing AI» loyihasi alohida ahamiyatga ega. Bu dastur sun'iy intellekt yordamida tasvirlarni tahlil qilib, ularni ovozli ma'lumotga aylantiradi. Dastur foydalanuvchi atrofidagi obyektlar, yozuvlar, odamlar va boshqa vizual elementlar haqida ma'lumot beradi.

Microsoft tomonidan berilgan ma'lumotga ko'ra: «Seeing AI ko'rish qobiliyati cheklangan foydalanuvchilar uchun ishlab chiqilgan bo'lib, u mobil qurilmalarda real vaqtda tasvirlarni tahlil qiladi va ovozli tavsiflar taqdim etadi» [2]. Bu esa ko'zi ojiz shaxslar uchun kundalik hayotdagi harakatlarni yengillashtirib, ularning mustaqil harakat qilish qobiliyatini oshiradi.

Sining nogironlar va marginal guruhlar uchun yana bir qator imkoniyatlar yaratgan bo'lib, ular quyidagicha:

1. Gapira olmaydigan shaxslar uchun ovoz sintezi.

Google kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan «Project Euphonia» dasturi nutq nuqsoniga ega bo'lgan shaxslarga sun'iy intellekt yordamida aniq va tushunarli ovoz chiqarish imkonini yaratadi. Dastur foydalanuvchining noto'g'ri talaffuz qilingan so'zlarini tanib, ularni aniq tarzda ovozli ma'lumotga aylantiradi.

2. Nogironlar uchun avtonom harakat tizimlari.

Sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan «Self-driving wheelchairs» kabi loyihalar harakatlanishda qiyinchiliklarga duch keladigan shaxslar uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Bunday texnologiyalar inson buyruqlarisiz atrof-muhitni tahlil qilib, harakat yo'nalishini aniqlaydi.

3. Tinglash qobiliyati cheklangan shaxslar uchun nutqni matnga aylantirish. Google va Microsoft tomonidan ishlab chiqilgan «Live Transcribe» va «Automatic Captions» kabi texnologiyalar eshitish qobiliyati cheklangan shaxslar uchun real vaqtda nutqni matnga aylantirib, ularga axborotni to'liq tushunish imkonini yaratadi.

Sun'iy intellekt imkoniyati cheklangan shaxslar va ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlar uchun turli imkoniyatlar yaratishda muhim vositaga aylanmoqda. Microsoft Seeing AI, Google Project Euphonia, Self-driving wheelchairs, Live Transcribe kabi texnologiyalar ularning hayotini yengillashtirishga va jamiyatda teng imkoniyatlar yaratishga xizmat qilmoqda.

Sun'iy intellekt asosidagi onlayn platformalar va personallashtirilgan o'quv tizimlari ta'limga kirish imkoniyatlarini yaxshilaydi. Masalan, Xan Akademiyasi kabi platformalar ma'lumotlarning keng ommaga yetkazilishiga xizmat qiladi. Bu, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun juda muhim, chunki onlayn ta'lim orqali har bir talabaga individual yondashuv ta'minlanadi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari inson qarorlaridagi subyektivlik va stereotiplarni kamaytirish orqali diskriminatsiyani pasaytirishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, AQSH sud tizimida sun'iy intellekt algoritmlari jinoiy jazoni belgilash jarayonida inson omilidan kelib chiqadigan noxolislikni kamaytirish maqsadida qo'llanilmoqda.

Masalan, COMPAS (Correctional Offender Management Profiling for Alternative Sanctions) deb nomlangan sun'iy intellekt tizimi ayblanuvchining takroriy jinoyat sodir etish ehtimolini baholashda foydalaniladi. Bu algoritmlar turli ma'lumotlar, jumladan, ayblanuvchining yoshi, jinoiy tarixini tahlil qilib, xavf darajasini aniqlaydi. Natijada, sudyalarning jazolarini belgilashda ushbu baholarga tayanish orqali shaxsiy subyektivlikni kamaytirishlari mumkin.

Biroq, COMPAS tizimi atrofida bahs-munozaralar ham mavjud. 2016 yilda ProPublica tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda ushbu algoritmlar afroamerikalik ayblanuvchilarni noto'g'ri ravishda yuqori xavfli deb baholash ehtimoli yuqori ekanligi ko'rsatilgan. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, «afroamerikaliklar noto'g'ri ravishda yuqori xavfli deb baholanish ehtimoli ikki baravar ko'proq» [3]. Bu esa sun'iy intellekt algoritmlarining o'zi ham ma'lumotlardagi mavjud noxolisliklarni aks ettirishi mumkinligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, sun'iy intellekt texnologiyalari sud tizimida inson omilidan kelib chiqadigan subyektivlikni kamaytirishda foydali bo'lishi mumkin bo'lsa-da, ularning adolatli va xolis ishlashini ta'minlash uchun ma'lumotlar sifatini nazorat qilish va algoritmlarni doimiy ravishda baholab borish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Watson Health: Improving Global Healthcare. – URL: <https://www.ibm.com/watson-health>
2. Microsoft. «Seeing AI: An app designed for the blind and low vision community.» 2020. URL: <https://www.microsoft.com/en-us/seeing-ai>
3. Julia Angwin, Jeff Larson, Surya Mattu, Lauren Kirchner. «Machine Bias.» ProPublica, May 23, 2016. URL: <https://www.propublica.org/article/machine-bias-risk-assessments-in-criminal-sentencing>